

"COURAGE OF UZBEK PEOPLE IN THE BATTLE ON THE THRESHOLD OF STALINGRAD"

Mirzayev Timur Alfirovich

Deputy Head of the Faculty of Military Education of the Tashkent State Pedagogical University named after Nizami is the head of the general training cycle.

@ timurmirzayev82@gmail.com

Shernazarov Khushnudbek Sunnatillo Ogli

Student of the faculty of military education of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

Shernazarovxushnudbek@Gmail.Com

+998977733735

Annotation: This article is about the history of the Soviet era, the history of the Soviet era, the history of the Soviet Union, the history of the Soviet Union. and the feeling of glorification and protection, the devotion on this path, the great courage of the Uzbek heroes, who mobilized all their energy in the cause of peace, the noble and lofty goal.

Keywords: Stalingrad, Kursk, Oryol, fascism, Soviet Union, Belarus Baltic Caucasus "Heroes of the Battle of Stalingrad" "Hero for the Defense of Stalingrad".

"STALINGRAD OSTONASIDAGI JANGDA O`ZBEKLAR JASORATI"

Mirzayev Timur Alfirovich

Nizomiy nomidagi TDPU harbiy ta`lim fakulteti boshligining O`rinbosari umumqo`shin tayyorgarlik sikil boshlig`i.

@timurmirzayev82@gmail.com

Shernazarov Xushnudbek Sunnatillo O`g`li

Nizomiy nomidagi TDPU harbiy ta`lim fakulteti talabasi.

Shernazarovxushnudbek@Gmail.Com

+998977733735

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanimiz tarixining eng murakkab,ziddiyatli,og`ir yo`qotishlar va talafotlar, fojiali voqealarga boy shuningdek ajdodlarimizning yurt ozodligi va mustaqilligi uchun olib borgan qahramonona kurashlari ,zafarlari , fidokorona mehnatlaridan iborat sovet davri tarixi , ajdodlarimizning vatanparvarligi,ona

yurtni sevish va ulug'lash ,uni himoya qilish hissi, Shu yôldagi fidoyilik, ôzining bor Kuch g'ayratini ezgu va Oliy maqsad bôlmish tinchlik yôlida tôla safarbar etgan özbek qahramonlarining buyuk jasoratlari yoritiladi.

Kalit so`zlar Stalingrad, Kursk,Oryol, fashizm, sovet ittifoqi, Belorussiya Boltiq Kavkaz "Stalingrad janggi qahramonlari" "Stalingrad Mudofaasi uchun" Qahramon".

"Ishonchim komil Qahramon ajdodlarimizning jasoratiga sodiq bo`lgan oljanob xalqimiz tinchlik va farovon hayotni qadrlab,uni yanada mustahkamlash yôlida bor Kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi".

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Vatan bu inson va uning avlod- ajdodlari kindik qoni tôkilgan muqaddas dargohdir.Vatan bu ajdodlar maskani,el yurt xalq voyaga yetgan ,uning tili ,tarixi ,madaniyati,urf odatlari qadriyatları chinakamiga shakllanib, o'sib kamol topib boradigan zamindir.Uni asrab avaylash har birimizning farzandlik burchimizdir.

Dunyo tarixidagi eng daxshatli eng qonli qirg'in bo`lgan 2-jahon urushi insoniyatga mislsiz yo`qotishlar talafotlar va musibatlar olib kelgan, ushbu beshavqat jangda O'zbekistondagi mehnatga layoqatli aholining deyarli yarmi qatnashgan. Ularning 500-mingdan ko`prog'i jang maydonlarida halok bo`lgan qanchadan, qancha insonlar mayib -majruh bo`lib qaytgan Yana qanchasi bedarak yo`qolgan.

Xalqimiz front hududlaridan kôchirilgan bir millionga yaqin kishini qabul qilgan.Jumladan ikki yuz Mingdan ziyod bolalarni o`z oilasi bag'rige olgan ,bir burda nonni ular bilan baham kôrgan .

Xalqimizning bunday bag'rikengligini va oljanobligini ,fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qôshgan ulkan hissasini butun dunyo e'tirof etadi.

Insoniyat tarixidagi eng daxshatli bôlgan ikkinchi jahon urushida bиргина O'zbekistonning ôzidan 133-mingga yaqin jangchi bedarak yo`qolgan.

Ikkinci jahon urushida jasorat va matonat namunalarini körsatgan minglab özbek jangchilarining hoki-poyi Stalingraddan tortib Berlinga qadar bo`lgan masofada abadiy makon topgan.

Stalingrad jangi bu ikki buyuk armiya tôqnashgan katta jangdir. Nemislar jahannamni yer yuzida deb hisoblashgan. Bu buyuk Vatanparvarlik urushida burilish nuqtasi bo`lgan Stalingrad jangi edi

Stalingrad jangi-ikkinchi jahon urushi davridagi eng yirik janglardan biri (1942-1943) Stalingrad atrofi va shahar ichidagi Mudofaa janglarida sovet qôshinlari qattiq qarshilik körsatib ,nemis fashistlarining 6-dala va 4-tank armiyalari hujumini to`xtatdi. 1942-yilning 17-iyul sanasi Stalingrad jangining birinchi kuni hisoblanadi. 18—19-iyul

kunlari nemislarning 62 va 64-armiyalarining bo'limmalari oldingi chiziqlarga yetib bordi. Besh kun davomida mahalliy janglar bo'lib o'tdi, unda nemis qo'shinlari to'g'ridan to'g'ri Stalingrad frontining asosiy mudofaa chizig'igacha yetib bordi.

Shunday qilib ikki oy davom etgan shiddatli janglar boshlandi. 28-iyul kuni SSSR Mudofaa ishlari komissarining 227-sonli buyrug'i chiqdi: "Orqaga bir qadam ham tashlamang!" U qo'shinlarga buyruqsiz ortga chekinishni taqiladi. Ushbu buyruqqa binoan qo'shimcha rota va batalyonlar tashkil etila boshlandi. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, Stalingrad jangi ikki million kishining hayotiga zomin bo'ldi. Jang, taxminan, ikki yuz kun davom etdi va bir paytlar gullab-yashnagan tinch shaharni butunlay vayronaga aylantirdi.

Harbiy harakatlar boshlanishidan oldin shaharda yashagan yarim million tinch aholidan urush oxiriga kelib o'n mingga yaqin odam qoldi. Ikkinci jahon urushi tarixida Stalingrad jangining ahamiyati juda katta. Bunday katta yo'qotishlarni boshdan kechirgan fashistlar urushdagi ustunliklarini yo'qotdi. Bundan tashqari, Qizil Armiyaning muvaffaqiyati Gitlerga qarshi kurashayotgan boshqa davlatlar armiyalarini ilhomlantirdi.

Gitlerning o'zi Stalingrad jangining ahamiyatini va unda nemis armiyasining mag'lubiyatini ta'kidladi. Uning so'zlariga ko'ra, 1943-yil 1-fevralda Sharqqa qilingan hujum endi hech qanday ma'noga ega emas edi. Hal etilishi lozim bo'lgan vazifalari, tomonlar tomonidan harbiy harakatlarning fazo va vaqt darajalari, shuningdek, natijalarni hisobga olgan holda, Stalingrad jangi ikki davrni o'z ichiga oladi: mudofaa — 1942-yil 17-iyuldan 18-noyabrgacha; hujum — 1942-yil 19-noyabrdan 1943-yil 2-fevralgacha.

1941-1945 yillarda urushning barcha jabhalarida Özbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik möjizalalarini körsatdilar. Umuman ikkinchi jahon urushi har jahbada Turkistonlik jangchilar Shu jumladan özbekning ananaviy urush qobiliyatlarining saqlanib qolganligini ko`rsatdi. Jami bôlib ikkinchi jahon urushiga o`zbekistondan 1,433 230-kishi safarbar bo`lgan. Bu o`zbekistonning ôsha davridagi urushiga yaroqli aholining 50,60 foizini tashkil etgan

Stalingrad jangida " qish qahratonidan yengilgan" dushman yoz janggida g'alaba qilish ishtiyoqida 1943-yilning iyul oyi boshida 232-diviziya bilan Kursk, Orol , Belgorod yoyi böylab hujumga ôtdi. Ammo dushman bu yerda ham yengilib fashistlar Germaniyasi halokat yoqasiga kelib qolgan edi. O`zbekistonlik mard jangchilar Ukraina va Belorussiya Kavkaz va Boltiq böyi yerlarini dushmanidan Ozod qilishda, qamalda qolgan Leningradni himoya qilishda, Xulas SSSR ni dushmanidan tozalash qardosh yevropa xalqlariga yordam qôlini cho`zishda hamda Gitlerchilar fashizmni o'z uyasida tor mor keltirishda qahramonlik namunalarini körsatdilar.

Stalingrad Mudofaasidagi jang dunyo tarixining qurbanlari soni bôyicha va oldingi chiziqning miqyosida eng katta janglarga tegishli .200-kun davomida sovet armiyasining 500 mingga yaqin askari va bazi askarlar Germaniya yonida kurashgan va ularning ittifoqchilari ôldirilgan.

Oldingi uzunlik 400-kmdan 850-kmgacha ôzgarip turdi, ularning umumiy maydoni 100-ming kv metrni tashkil etadi. Shunday qilib Stalingradda fashizimning Tomiri qirqlidi. 1943 yilning 2-fevrali kuni dushmanning sönggi guruhi tor mor qilinadi va Stalingrad janggi sovet armiyasining g'alabasi bilan yakunlandi . Stalingradning "Stalingrad" janggi qahramonlarini taqdirlash uchun sovet buyrug'i yangi medal bilan "Stalingrad mudofaasi uchun"ni tasdiqladi.

O'zbekistonlik jangchilardan 120ming kishi SSSR ning orden va medallari bilan taqdirlandilar. 300-dan ortiq kishiga " Sovet ittifoqi Qahramoni" unvoni berildi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirzoyevning Rossiya federatsiyasi poytaxti Moskva shahriga tashrifida Rossiya prezidenti V.Putin o'zbek xalqi g'alabaning ulkan hissa qo'shganligi yurtdoshlarimiz front ortida fidokorona mehnat qilganini elimiz evakuatsiya qilinganlarni bag'rikenglik bilan qabul qilganini mammuniyat bilan qayd etdi.

Toshkent shahrida "G'alaba" bog'i tashkil etilganini alohida ta'kidladi.

"Bu bizning umumiylar tariximiz , umumiylar g'alabamiz "-deydi Shavkat Mirzoyev. "Bugun biz sizlar bilan birgalikda yangi o'zbekistonni barpo etmoqdamiz, yangi hayot ,beqiyos o`zgarishlar hammamizdan fidoyilik va buniyodkorlikni,Yanada katta safarbarlikni talab etmoqda. Bu jarayonda tinchlik va osoyishtalikni asrash, jahon hamjamiyati avvalo qoshni davlatlar bilan do'stlikni va hamrohlikni kuchaytirishni biz eng muhim vazifalarimizdan deb bilamiz"-Shavkat Mirzoyev.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati:

1. https://daryo-uz.cdn.ampproject.org/v/s/daryo.uz/amp/2020/08/23/orqaga-bir-qadam-ham-tashlamang-ikkinci-jahon-urushida-tub-burilish-yasagan-stalingrad-jangi-haqida/?amp_js_v=a6&_gsa=1&usqp=mq331AQHKAFQArABIA%3D%3D#aoth=16195377328618&referrer=https%3A%2F%2Fwww.google.com&_tf=From%20%251%24s&share=http%3A%2F%2Fdaryo.uz%2F2020%2F08%2F23%2Forqaga-bir-qadam-ham-tashlamang-ikkinci-jahon-urushida-tub-burilish-yasagan-stalingrad-jangi-haqida%2F
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Stalingrad_jangi
3. <https://hozir.org/ozbekiston-jangchilarining-frontlardagi-jasoratlari.html>
4. <http://old.uza.uz/uz/society/ikkinci-jahon-urushi-o-zbekiston-jasorat-solnomasi-7-qism-06-11-2019>.
5. <https://lex.uz/docs/-4664439>
6. <https://adu.uz/newspage?new=478&language=ru>.